

## **INGLIZ TILINING SHEVALARI: TARIXIY RIVOJLANISH VA GLOBAL FARQLARI**

**Boboqulova Ruxshona Rauf qizi**

Samarqand davlat chet tillari instituti talabasi

Gmail: [boboqulovaruxshona01@gmail.com](mailto:boboqulovaruxshona01@gmail.com)

**Zubaydova Nilufar Nematullayevna**

Samarqand davlat chet tillari instituti o'qituvchisi

**Annotasiya:** Ushbu maqola ingliz tilining shevalari, ularning rivojlanishi, tarixiy kelib chiqishi va farqlari haqida malumot beradi. Tilni mukammal bilish, albatta uning kelib chiqish tarixini örganishni ham öz ichiga oladi. Biz tilni chuqur örganib borganimiz sari uning tarixi va shevalariga qiziqishimiz ortib boradi, bu esa insonda tilni samarali örganish va u haqidagi bilimlarini kengaytirishga olib keladi. Va yana ushbu maqolada sheva nima va u insonlar orasida qanday ahamiyatga ega, biz nima uchun kundalik hayotimizda shevadan kõp foydalanishimiz haqida malumotlar beriladi.

**Kalit so'zlar:** Sheva, ingliz tilining kelib chiqish tarixi, ingliz shevalari, Britaniya ingliz tili, Amerika ingliz tili, Australia ingliz tili, Kanada ingliz tili.

### **KIRISH**

Ingliz tili dunyoning ko'plab mamlakatlarida keng tarqalgan bo'lib, u nafaqat asosiy til, balki xalqaro muloqotning eng muhim vositalaridan biri hisoblanadi. Ingliz tilining tarqalishi va mustamlaka davri uning turli mintaqalarda o'ziga xos shevalarga aylanishiga olib keldi. Bugungi kunda ingliz tili dunyo bo'ylab turli xil talaffuz, leksika va grammatik jihatlarga ega ko'plab shevalarda ishlataladi. Barcha tillarda bõlgani kabi ingliz tilining shevasi ham rang-barangdir va ular bir-biridan kelib chiqishi, aksenti, grammatik strukturasi bilan farq qiladi. Maqolada ingliz tili va uning shevalarining tarixi bilan tõliq tanishib chiqamiz.

Ingliz tili mil. av. 5—6-asrlarda kad. german qabilalari (ingliz, saks va yut)ning tillaridan kelib chiqqan. Ingliz tili Angliyaning Anglo-Sakson qirolliklari hamda hozirgi janubiy-sharqiy Shotlandiya yerlari avvalgi Norzumbriya qirolligida vujudga keldi. Tarixiy manbaalarga ko'ra, eski ingliz tili juda ko'plab shevalar turkumini o'z ichiga oladi.

Qadimiylar ingliz tili (7—11-asrlar) anglosaks tili deb atalgan va 4 shevaga ega bo'lgan: nortumbriy, mersiy, uestsek va kent. 9—11-asrlarda uestsek shevasi asosida adabiy

ingliz tili shakllangan. Bu shevalar turkumi Buyuk Britaniyaning sharqiy qirg‘og‘iga nemis qabilalari bo‘lmish anglo-saksonlar tomonidan keltirilgan. English (ingliz) so‘zi Angles so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, bu xalqning ajododlar yurti Angeln hozirgi Schleswig-Holstein bo‘lgan. Ingliz so‘zlarning ko‘philigi Lotin tilidan olingan, vaholanki lotin tili Xristian Cherkovi hamda Yevropa tafakkur doirasining tili edi. Vikinglarning 8 hamda 9-asrdagi istilosidan keyin ingliz tili eski norz-tilining bir qismini o‘zlashtirdi. Angliyaning 11-asrda Normandlar tomonidan egallanilishi norman fransuz tilinin ingliz tili bilan qorishishiga olib keldi. Aynan shu sababli ingliz tili lug‘aviy va imloviy tarzda roman tillar turkumiga aloqador. O‘rta ingliz tili (12—15-asrlar) urg‘usiz unlilarning reduksiyaga uchrashi natijasida fe’lllik so‘z birikmalari ko‘p o‘zgarishlarga uchragan. 16—17-asrlarda yangi ingliz tili yuzaga kelgan. Buyuk Britaniyaning 17 va 20-asr o‘rtasidagi kuchli rivojlanishi hamda AQSHning 20-asrdagi dunyoviy tasiri ostida ingliz tilining xalqaro nufuzi oshdi.

**1. Britaniya ingliz tili (British English).** Britaniya ingliz tili ingliz tilining eng qadimiylari va tarixiy variantlaridan biri hisoblanadi. U Buyuk Britaniya hududida shakllangan bo‘lib, ko‘plab boshqa shevalar va dialektlarga asos bo‘lib xizmat qilgan.

**Tarixiy rivojlanish:** Britaniya ingliz tili Germaniya qabilalari tomonidan Angliyaga olib kelingan qadimgi tillar negizida rivojlangan. Keyinchalik Norman istilosi davrida frantsuz tilining ta’siri kuchaygan va ingliz tiliga ko‘plab frantsuzcha so‘zlar kirib kelgan. Bu til rivojlanishi davomida yanada boyib, XX asrda standartlashtirilgan shaklda tanildi.

**Talaffuz:** Britaniya ingliz tilida so‘z oxiridagi "r" harfi talaffuz qilinmaydi, bu esa uni Amerika ingliz tilidan ajratib turadi.

**Leksika:** Ko‘p so‘zlar Britaniyada Amerikaga nisbatan boshqacha ishlatiladi. Masalan, “lift” Britaniyada lift, AQShda esa elevator deb yuritiladi. **Grammatika:** Britaniya ingliz tilida present perfect zamoni ko‘proq qo‘llaniladi. Masalan, “I have eaten already” — bu jumla Amerikada ko‘proq oddiy o‘tgan zamonda “I ate already” tarzida ishlatiladi.

**2. Amerika ingliz tili (American English).** Amerika ingliz tili bugungi kunda eng ko‘p ishlatiladigan sheva hisoblanadi. Uning rivojlanishi ko‘plab tarixiy, ijtimoiy va madaniy omillarga bog‘liq.

**Tarixiy rivojlanish:** Amerika ingliz tili XVI-XVII asrlarda Yevropadan ko‘chib kelgan mustamlakachilar tufayli rivojlangan. Amerika ingliz tilida ko‘plab Yevropa tillarining (xususan, ispan va frantsuz) ta’siri bor. Shuningdek, mahalliy Amerika tillari ham ushbu tilning rivojlanishida muhim rol o‘ynagan.

**Talaffuz:** Amerika ingliz tilida "r" harfi ko‘pincha talaffuz qilinadi. Masalan, “car” so‘zi AQShda [kar] tarzida talaffuz qilinadi, Britaniyada esa [ka:].

**Leksika:** AQShda o‘ziga xos so‘zlar va iboralar mavjud. Masalan, “sidewalk” Britaniyada pavement, AQShda esa sidewalk deb ataladi.

**Grammatika:** Amerika ingliz tilida soddalashtirilgan grammatik shakllar ishlataladi. Masalan, “gotten” o‘tgan zamon shakli, Britaniyada esa bu so‘z ko‘proq “got” shaklida ishlataladi.

3. *Avstraliya ingliz tili (Australian English)*. Avstraliya ingliz tili o‘ziga xos talaffuzi va so‘z boyligi bilan boshqa shevalardan farq qiladi. Ushbu sheva Britaniya mustamlakachilari tomonidan olib kelingan va mahalliy madaniyat ta’sirida rivojlangan.

4. *Tarixiy rivojlanish:* Avstraliya ingliz tilining shakllanishi XIX asrda britan kolonizatorlarining kelishi bilan boshlangan. Avstraliya hududida yashagan mahalliy qabilalarning tillari ingliz tilining so‘z boyligini boyitgan va tilga turli dialektlar kirib kelgan.

**Talaffuz:** Avstraliya aksani Amerika yoki Britaniya aksanidan ancha yumshoq va qisqa. "Mate" so‘zi keng tarqalgan va o‘ziga xos tarzda talaffuz qilinadi.

**Leksika:** Avstraliyada ko‘plab mintaqaviy so‘zlar mavjud. Masalan, “arvo” — afternoon (tush), “barbie” — barbecue (grilda pishirish).

4. *Kanada ingliz tili (Canadian English)*. Kanada ingliz tili Britaniya va Amerika ingliz tillarining aralashmasi bo‘lib, u Kanada madaniyati va tarixi bilan bog‘liq holda rivojlangan.

**Tarixiy rivojlanish:** Kanada ingliz tili ingliz va frantsuz madaniyatlari ta’sirida shakllangan. Kanada frantsuz tilining ta’siri kuchli bo‘lgan hududlarda ingliz tilining talaffuzi va leksikasi o‘ziga xos bo‘lib qolgan.

**Talaffuz:** Kanadada ayrim so‘zlar Amerika va Britaniya aksanlaridan farq qiladi. Masalan, “about” so‘zi Kanadada ko‘pincha [ə'baʊt] tarzida talaffuz qilinadi.

**Leksika:** Kanadada frantsuzcha ta’sir mavjud. Masalan, “washroom” AQShda bathroom, Britaniyada esa toilet deb ataladi.

**Grammatika:** Kanadada Britaniya ingliz tilida ishlatiladigan "-our" shaklidagi so‘zlar mavjud: colour (color), favour (favor).

### Xulosa

Ingliz tili shevalari turlicha va murakkab. Har bir sheva o‘ziga xos talaffuz, lug‘at boyligi va grammatikaga ega bo‘lib, odamlarning mintaqa, madaniyat va tarixga bog‘liqligini ifodalaydi. Masalan, Britaniya va Amerika ingliz tillari orasida talaffuz va ayrim so‘zlar farqlanadi, shu bilan birga Avstraliya, Kanada va boshqa

mamlakatlarda ham o‘ziga xos shevalar mavjud. Ingliz tili shevalari madaniyatlararo muloqotda muhim rol o‘ynaydi, va ularga oid bilim, turli mintaqalar aholisini yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Abdullayeva, Z. Ingliz tilining grammatikasi. Tashkent: O‘qituvchi, 2018.
2. Rahimov, M. Ingliz tili: Tarixi va dialektlari. Tashkent: O‘zbekiston, 2019.
3. Islomov, O. Zamoniaviy ingliz tilining shevalari. Tashkent: Fan va texnologiya, 2020.
4. Jabborov, B. Ingliz tilining kelib chiqishi va rivojlanishi. Tashkent: O‘zbekiston, 2017.
5. N N Zubaydova How to teach vocabulary Nofilolog oliv o’quv yurtlarida chet tilini o’qitishda uchraydgan muammolar ..., 2019
6. M Orzikulova, G Rustamova “Methods Of Improving Speaking Skills For Kids” Conference Proceedings: Fostering Your Research Spirit, 151-154, 2024.
7. Valieva, N. (2022). Marie-Laure Derat, L’énigme d’une dynastie sainte et usurpatrice dans le royaume chrétien d’Éthiopie du XIe au XIIIe siècle. Aethiopica, 25, 258-261.
8. Валиева, Н. (2021). «Житие Лалибэлы»: новые перспективы исследования. Библия и христианская древность, 3(11), 197-214.
9. Valieva, N. (2021). Prof. Geta (t) chew Haile:(approx. 04/19/1931–June 10, 2021). Scrinium, 17(1), 16-19.
10. Valieva, N., & Liuzzo, P. M. (2021). Giving Depth to TEI-Based Descriptions of Manuscripts: The Golden Gospel of Ham. Aethiopica, 24, 175-211.
11. Valieva, N. (2020). The Manuscript Book in the Traditional Culture of Ethiopia, written by Platonov Vyačeslav Michajlovič, 2017. Scrinium, 16(1), 410-412.
12. Valieva, N. (2020). Getatchew Haile, The Ethiopian Orthodox Church’s Tradition on the Holy Cross. Aethiopica, 23, 281-285.
13. Valieva, N. (2019). Nafisa Valieva, The ‘Gadla Lālibalā collection of textual units’: tradition and documentation. Aethiopica, 22, 315-318.
14. Валиева, Н. Ф. Библия И Христианская Древность. Библия И Христианская Древность Учредители: Кожухов Сергей, (3), 197-214.
15. Валиева, Н. А. (2022). Вақф Тушунчаси Ва Тарихдаги Вақф Ташкилотлари Ҳақида. Oriental Journal of Social Sciences, 2(2), 107-114.
16. Худайназаров, Ф. (2024). Кичик Бизнес Субъектлари Фаолиятини Ривожлантиришнинг Назарий Асослари. Iqtisodiyot va ta’lim, 25(2), 335-340.

17. Xudoynazarov, F. (2023). Islom Moliysi–Muammolar Va Yechimlar. Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil, 1(8), 109-114.
18. Худойназаров, Ф. (2023). Ислом Иқтисодиёти: Ибн Халдун Тавсиялари. Iqtisodiyot va ta'lim, 24(6), 351-356.
19. Худойназаров, Ф. (2023). Тўқима Ҳадислардан Ҳадисларни Сақлаб Қолишида Муҳаддислар Фаолияти. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(2), 763-776.
20. Khudaynazarov, F. (2020). Political and Dynastic Relations Of Kievan Rus. The American Journal of Interdisciplinary Innovations and Research, 2(08), 55-64.
21. Shokhista, R. (2023). The Significance Of Emphasizing Communicative Competence As The Foundation For Teaching Listening And Speaking Skills Rustamova Shokhista Sharifovna. International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research, 25-28.
22. Rustamova, S. S. (2023, January). The Importance Of Speaking Activities In Teaching English. In International Conferences (Vol. 1, No. 1, pp. 357-361).
23. Sharifovna, R. S. (2022). Teaching Spoken English To Upper Class Pupils. Confrencea, 6(6), 87-89.
24. Sharifovna, R. S. (2022). Class Size And The Learning-Teaching Process In Upper Classes. Journal of new century innovations, 14(1), 86-98.
25. Сулейманова, Н. (2017). О номинативной функции предложения. Иностранный филология: язык, литература, образование, 2(4 (65)), 88-91.
26. Сулейманова, Н. М., & Идиев, А. Р. Ў. (2021). Макрономинатив Маъно Ортида Макропропозитив Структура Ҳақида. Academic research in educational sciences, 2(4), 798-802.
27. Сулейманова, Н. М., & Бобоҷонова, М. М. (2020). Связь Номинативных Значений Слова С Пропозитивной Структурой. In Лингвистика И Методика: Междисциплинарный Подход (pp. 141-144).
28. Сулейманова, Н. М. (2016). О Структурной Схеме Номинативного Значения. Ученый XXI века, (2-4).
29. Сулейманова, Н. Тил Белгиларининг Нутққа Кўчирилиши.